

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTUI**



**TASDIQLAYMAN**

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot  
institutii rektori**

**Sh. Bazarov**

**2022 yil**

**“MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISH”  
fanining**

**O‘QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	400000 – Biznes, Boshqaruv va huquq
<b>Ta’lim sohasi:</b>	410000 – Biznes va boshqaruv
<b>Ta’lim yo‘nalishlari:</b>	70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha); 70410102 – Audit (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

<b>Fan/modul kodi</b> 336 FIRM 1.4.2.05.	<b>O'quv yili</b> 2022-2023	<b>Semestr</b> 3	<b>ECTS - Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Tanlov fanlari	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Moliyaviy risklarni boshqarish</b>	60	60	120
<b>2.</b>	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – kelgusida yuqori malakali buxgalter, auditor, iqtisodchi-moliyachi mutaxassislar bo'lib yetishadigan talabalar uchun moliyaviy risklar nazariyasi bo'yicha bilimlar berish, talabalarda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasidan kelib chiqib moliyaviy risklarni xo'jalik yurituvchi subektlarning iqtisodiy-moliyaviy faoliyatiga ta'sirini baholash bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – fan bo'yicha nazariy bilimlarga, amaliy ko'nikmalarga, ilmiy dunyoqarash shakllangan, moliyaviy risklarning mohiyati va ahamiyatini, tasnifi va tavsifi chuqur o'rgangan, bozor risklari, foiz risklari, investitsion risklar, kredit risklari, inflatsion risklar, valyuta risklari, aktivlar riski, moliyaviy bozor risklari, moliyaviy risklarni baholay oladigan va baholash metodlarini amaliyotda qo'llaydigan, moliyaviy risklarini boshqarish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgangan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu: Moliyaviy risklarning mohiyati va ahamiyati</b> “Moliyaviy risklar nazariyasi” fanining predmeti, maqsad, vazifalari va boshqa maxsus fanlar bilan bog'liqligi. Risk tushunchasi va uning mohiyati. Risk mohiyati va mazmunini ko'rib chiqish jarayonida tadbirkor, ishbilarmon va menejerning muvaffaqiyati riskka munosabatni tushunishiga sezilarli darajada bog'liqligini isbotlash. Risk xususiyatlari. Riskni yuzaga keltiruvchi omillar. Tadbirkorlik faoliyati va biznesda risk nazariyasi.</p> <p><b>2-mavzu: Moliyaviy risklarning tasnifi va tavsifi</b> Moliyaviy risklarni tasnifi. Moliyaviy risklarni tuzilmasi. Moliyaviy risklarni guruhlari, turlari va xilma-xilligi. Sof va spekulativ risklar. Moliyaviy va tijorat risklari. Pulning to'lov qobiliyati bilan bog'liq risklar. Tuzilmaviy va notuzilmaviy risklar. Korxonalar faoliyat yo'nalishi bo'yicha</p>			

yuzaga keladigan risklar. Moliyaviy risklarning o'ziga xos xususiyati, ularni baholash, nazorat, monitoring va boshqarish yo'llari, bosqichlari. Moliyaviy risklarning kelib chiqish sabablari. Moliyaviy risklarning tasniflanish jarayoni. Moliyaviy risklarning klassifikatsiyasi orqali korxonada faoliyatida riskning paydo bo'lishining barcha qirralarini tahlil qilish va o'rganish.

### **3-mavzu: Bozor risklari**

Bozorlarda faoliyat yuritishda risklar asosiy omil va muammo sifatida. Bozor risklarini keltirib chiqaruvchi omillar. "Zararsizlik nuqtasini aniqlash" modeli. Bozor risklarining tabiati va manbalari. Bozor risklarni boshqarishni tashkillashtirish modeli. Bozorlarda faoliyat yuritish bilan bog'liq xatti-harakatlar risksizligi tushunchasi. Bozor risklari to'g'risidagi axborot va uning risklarni tahlil qilishdagi ahamiyati. Bozor risklarini boshqarish usullari. Bozorlardagi xattiharakatlar risksizligi ehtimoliy modeli.

### **4-mavzu: Kredit riski**

Kredit riski va uning xususiyatlari. Kredit riskining keltirib chiqaruvchi omillar. Kredit risklari tahlili. Kredit risklarini kamaytirish usullari. Kredit kafolatlari. Kredit risklarini kafolatlash mexanizmi. Uchinchi tomon kafolati. Kredit to'lovlari. Iste'mol kreditida foizlarni oshirish va to'lash. Qarzlarni to'lash uchun potentsial pul mablag'lari manbasi. Tijorat operatsiyalari. Ssudani to'lama riskini kamaytirish.

### **5-mavzu: Valyuta riski**

Valyuta risklari tushunchasi va uning turlari. Operatsion, translyation va iqtisodiy valyuta risklari. Translyatsion valyuta risklarini boshqarishning xususiyatlari. Valyuta konversiyasi va foizlarni oshirish. Vaqt bo'yicha valyuta kurslari. Valyuta risklarini kamaytirish. Valyuta riski yoki kurs yo'qotishlari riski. Xalqaro korxonalar va bank muassasalari tashkil etish hamda ularning faoliyatini diversifikatsiyalash. Valyuta kurslari tebranishlari natijasida moliyaviy yo'qotishlar yuzaga kelish ehtimoli. Valyuta kurslarining o'zgarishi. Naqd pul oqimlarining transformatsiyasi. Valyutaning ichki qiymati o'zgarishi. Spekulyatsiya. Valyuta pozitsiyalari.

### **6-mavzu: Foiz riski**

Foiz riski. Foiz riskining xususiyatlari. Foiz stavkalarining noqulay tebranishlari tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar ehtimoli. Foiz riski turlari. Foizlar bilan operatsiyalar. Murakkab foizlar. Oddiy foizlar. Foizlarning o'rtacha qiymatlari. O'rtacha qiymatlar orqali axborotni kamaytirishga imkon berish. O'zgaruvchan foiz stavkasi. Foiz stavkalari riski. Moliya bozorida foiz stavkalari. Foiz stavkalarining oshishini narxlar pasayishiga va obligatsiyalar egalari zarar ko'rishiga sabab bo'lishi. Investitsiya riskining foiz stavkalari riskiga bog'liqligi.

### **7-mavzu: Inflatsiya riski**

Foiz stavkasining inflyatsiya darajasi bilan o'zaro bog'liqligi. Inflyatsiya riskining xususiyatlari. Pulning xarid qobiliyatini o'zgartirish riski. Inflyatsiya sur'atlari va uni kamaytirish usullari. Inflatsiya riskining fuqarolarning jamg'armalariga, shuningdek, qat'iy belgilangan daromadli

qimmatli qog'ozlarning qiymatiga ta'siri. Inflyatsiya mukofoti. Inflyatsiyaning turli jarayonlarga ta'siri. Inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlar. Imtiyozli shartlardagi kapital xarajatlarga kreditlar taqdim qilish. Investitsiya banklari tarmog'ini shakllantirish. Foiz darajasini pasaytirish yo'nalishlari.

### **8-mavzu: Investitsiya risklari**

Investitsiya risklari. Investitsiya risklarning xususiyatlari. Investitsiya loyihalarni amalga oshirish jarayonidagi risklar. Rejalashtirilgan foydani olmaslik ehtimoli. Riskli aktivlarning daromadlilik stavkalari. Sof diskontlangan qiymat. Investitsiya loyihalarining xususiyatlarini baholashda diskontlash stavkasidan foydalanish. Annuitet va qaytarish fondi. Investitsiyalarni baholash. Riskli investitsiyaviy to'lovlar.

### **9-mavzu: Aktivlar riski**

Aktivlar riski, xususiyatlari va ularni baholash. Birja risklari. Tijorat bitimlari bo'yicha to'lovsizlik riski, brokerlik firmalariga komissiya mukofotlarining to'lovsizlik riski. Defolt va soliqqa tortish riskining ta'siri. Aktivlar qiymatini maksimallashtirish. Moliyaviy risk darajasini ehtimoliy baholash. Aksiyalar riskliligini baholash. Aktivlar yoki moliyaviy bitimlarning risklilik darajasini boshqa omillar ta'siridan ajratilgan holda baholash. Spekulyantlar. Ishlab chiqarish bilan bog'liq risklar. Kompaniya mahsulotlari narxining o'zgarishi bilan bog'liq narx riski. Xom-ashyo va butlovchi qismlar narxidagi o'zgarishlar bilan bog'liq narx riski.

### **10-mavzu: Moliyaviy risklarni baholash metodlari**

Moliyaviy risklarni baholash metodlari. Markovitsning portfel tahlili nazariyasi. Investorlar uchun portfellarni shakllantirish, portfel riskidan foydalanish. Aksiyalar sifati, riski va investor daromadini baholash. Tobinning portfel tahlili nazariyasi. Risksiz qimmatli qog'ozlar. Qimmatli qog'ozlar optimal portfelini shakllantirish. Riskni baholash muammolari. Sharp modeli. Sharp modelining xususiyatlari. Blek modeli. Blek modelining o'ziga xos xususiyati. Portfel daromadlilikini baholash.

### **11-mavzu: Moliyaviy risklarni boshqarish**

Riskni boshqarishning umumiy tamoyillari. Risklarni boshqarish usullarini tanlash. Risklarni boshqarish strategiyalari. Diversifikatsiya. Risklarni sug'urta qilish. Sug'urta shartnomalarining asosiy xususiyatlari. Sug'urta operatsiyalarini hisoblash. Xedjirlash. Valyuta kursini xedjirlash. Kapital aktivlarni baholash modeli (KABM). KABMning asosiy mohiyati. KABM qo'llagan holda qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish. Beta koeffitsienti. Risk mukofoti. Kapital aktivlarning baholash modelining asoslari. Moliyaviy baholash va boshqarishning zamonaviy metodlari.

## **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Moliyaviy risklarning mohiyati va ahamiyati.
2. Moliyaviy risklarning tasnifi va tavsifi
3. Bozor risklari
4. Kredit riski
5. Valyuta riski
6. Foiz riski
7. Inflatsiya riski
8. Investitsiya risklari
9. Aktivlar riski
10. Moliyaviy risklarni baholash metodlari
11. Moliyaviy risklarni boshqarish

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

##### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. «Moliyaviy risklarni boshqarish» fanini o'rganishning ahamiyati
2. Bozor riskini baholashda “Zararsizlik nuqtasini aniqlash” modelini ahamiyati
3. Bozor risklarini baholash usullari va yo'llari
4. Diversifikatsiya - riskni kamaytirish yo'nalishi sifatida
5. Foiz risklarining iqtisodiy mohiyati va uni yuzaga kelish sabablari
6. Xedjirlash – moliyaviy risklarni pasaytirish usuli sifatida
7. Inflyatsion riskning iqtisodiy mohiyati va uni yuzaga kelish sabablari
8. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarishning muhim jihatlari
9. Investitsion risklar, ularning iqtisodiy mohiyati va kelib chiqish sabablari
10. Iqtisodiy faoliyatda tadbirkorlik riskini sug'urtalash
11. Iqtisodiy risklar, ularning turlari va ularda kredit riskining tutgan o'rni
12. Korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi risklarni baholash
13. Korxonalar foydasiga ta'sir etuvchi risklar tasnifi va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar
14. Kredit riski va uni minimalashtirish yo'llari
15. Kreditlash jarayoni bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish
16. Kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklarni samarali baholash
17. Moliyaviy risklar va ularning tasniflanishi
18. Muddatli bitimlar – valyuta riskidan himoya vositasi sifatida
19. Moliyaviy risklarni baholashning ehtimollikka asoslangan usullari
20. Moliyaviy risklarni boshqarish tizimi va uning funksiyalari
21. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistrlar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.	<p style="text-align: center;"><b>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ risk tushunchasi, risklarni tasniflash, noaniqliklar tizimi, risklarni boshqarish jarayoni, moliyaviy riskning kamaytirish usullari va metodlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;</li> <li>➤ bozorlarda faoliyat yuritish bilan bog'liq risklarni hisobga olish va baholash, foiz riski turlari, foizlar bilan moliyaviya operatsiyalar, investitsiya risklari, moliyaviy bozor risklari, moliyaviy risklarni baholash metodlari, moliyaviy risklarini boshqarish usullarini bilishi va <i>ulardan foydalana olishi</i>;</li> <li>➤ korxonalar va tashkilotlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir qiladigan moliyaviy risklarni aniqlash va baholash usullarini qo'llash, moliyaviy risklarni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab-chiqish maqsadida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o'tkazish va boshqarishni tashkil etish bo'yicha <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi</i>;</li> <li>➤ korxonalar va tashkilotlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir qiladigan moliyaviy risklarni aniqlash va baholash yuzasidan olgan bilimlarini qo'llay olish malakalariga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliyotlar ( mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni tayyorlash;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBAALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Шапкин А.С., Шапкин В.А.: “Теория риска и моделирование рискованных ситуаций”. — М.: “Дашков и Ко”, 2017.</li> <li>2. Бланк И.А.: “Управление финансовыми рисками”. — Киев: “НикаСентр”, 2005.</li> <li>3. Islomqulov A.X., Sattorov B.K., Sharifxodjayeva K.U: “Moliyaviy risklarni boshqarish”. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017.</li> </ol>

4. K.Navruzova va boshqalar: Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot NMIU, 2014, -240 b.
5. Boboqulov T.I., Abdullaye O.A. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari: Darslik;-T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.-228 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014 y.
2. “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 dekabrda «Jismoniy shaxslar tomonidan naqd xorijiy valyutani olib kirish va olib chiqib ketish tartibini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5276-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 oktyabrda «Kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini tartibga solishning qo'shimcha chora- tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3333-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 sentyabrdagi “Valyuta bozorini liberallashtirish sharoitida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning birinchi galdagi chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ- 3253-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2909-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 3151- sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida”gi 3775-sonli Qarori.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
10. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

	<p>13. Боди З., Мертон Р.: “Финансы”. Пер. с англ. — М.: “Вильямс”, 2007.</p> <p>14. Malikov T.C.: “Moliya”. –Т.: “Iqtisod-moliya”, 2018.</p> <p>15. Allen S.L.: “Financial Risk Management: A Practitioner’s Guide to Managing Market and Credit Risk”. “Wiley Finance”, 2nd Edition, 2012.</p> <p>16. Hull J.C.: “Risk Management and Financial Institutions”. “Wiley Finance”, 4th Edition, 2015.</p> <p>17. Malz A.M.: “Financial Risk Management: Models, History, and Institutions”. “Wiley Finance”, 2011.</p> <p style="text-align: center;"><b>Internet saytlari:</b></p> <p>18. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.</p> <p>19. www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.</p> <p>20. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.</p> <p>21. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.</p> <p>22. www.soliq.uz– O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.</p> <p>23. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.</p> <p>24. www.mumcfm.ru – Moliyaviy monitoring bo‘yicha xalqaro o‘quv-uslubiy markazi rasmiy sayti.</p> <p>25. www.eurasiangroup.org – Jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Evroosiyo guruhi rasmiy sayti.</p> <p>26. www.fedsfm.ru – Moliyaviy monitoring bo‘yicha Federal xizmatning rasmiy sayti.</p>
7	<p><b>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b> Fan dasturi Iqtisodiyot fakulteti (bayonnoma № 11, 24.06.2022 yil) hamda institut Kengashlarida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil “28” iyundagi №11- sonli bayonnoma).</p>
8	<p><b>Fan / Modul uchun mas’ul</b>  A.T.Alikulov - “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)</p>
9	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>G.J.Jumayeva</b> -QarMII, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.</p> <p><b>S.I.Samiyev</b> -QarMII, “Moliya” kafedrasini dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.</p>